



## ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA XALQARO VA MILLATLARARO HAMKORLIKNING AHAMIYATI

---

*Muallif : Tlepbayev Ajiniyaz Tolipbay uli*

**Kalit soʻzlari:** Xalqaro xamkorlik huquq, qonun qonunchilik, hamkorlik , prinsip , norma

**Anatatsiya :** Ushbu maqolada ichki ishlar organlarining milliy xalqaro va millatlararo xamkorligi sohasida olib borilayotgan keng islohotlar , ushbu yoʻnalish da vujudga kelayotgan muammo va kamchiliklar hamda ushbu tushunchalar yuzasidan duch kelishimiz mumkin boʻlgan ayrim tushunchalar va fikrlarga aniqlik kiritish maqsadida yozildi.

**Abstract:** This article was written in order to clarify the broad reforms that are being carried out in the field of national, international and international cooperation of internal affairs bodies, the problems and shortcomings that arise in this direction, and some concepts and opinions that we may encounter in connection with these concepts.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-sentabrdagi “Oʻzbekiston Respublikasi “Oʻzarxiv” agentligi faoliyatini takomillashtirish toʻgʻrisida”gi PQ-4463-son qarori va Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 8-fevraldagi “Oʻzbekiston Respublikasi “Oʻzarxiv” agentligi toʻgʻrisidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 72-son qaroriga muvofiq “Oʻzarxiv” agentligi tuzilmasida **Xalqaro munosabatlar boʻlimi** tashkil etilgan boʻlib, mazkur boʻlim arxiv ishi va ish yuritish sohasidagi mamlakatimiz va xorijiy davlatlarning ilgʻor ish tajribasini oʻrganish va ommalashtirish, xorijiy arxivlarda saqlanayotgan Oʻzbekiston tarixiga oid arxiv hujjatlari nusxalarini olib kelish uchun masʼul etib belgilangan.

Oʻzbekiston Respublikasi “Oʻzarxiv” agentligi tomonidan mutasaddi tashkilotlar va idoralar bilan xalqaro nufuzdagi hamkorlik munosabatlarini oʻrnatish maqsadida, xususan, arxivshunoslik, arxeografiya, ish yuritish, elektron hujjat aylanishi sohasida ilmiy, metodik ishlarni tashkil etish va muvofiqlashtirish, xalqaro ilmiy tadqiqotlar natijalarini va ilmiy-texnika yutuqlarini respublika arxivlari amaliyotiga joriy etish; xorijiy tajribani inobatga olib zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda muntazam ravishda arxiv ishi va ish yuritish sohasida faoliyat koʻrsatayotgan xodimlarni malakasini oshirish tizimini shakllantirish; arxiv ishi va ish yuritish sohasidagi mamlakatimiz va xorijiy davlatlarning ilgʻor ish tajribasini



o'rganish va ommalashtirish, xorijiy arxivlarda saqlanayotgan O'zbekiston tarixiga oid arxiv hujjatlari nusxalarini olib kelish kabi vazifalarni amalga oshirish uchun bir qator salmoqli *xalqaro va mahalliy hamkorlik hujjatlari* imzolanib, ular asosida tegishli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

**Jumladan (xronologiya bo'yicha):**

1. **“O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Bosh arxiv boshqarmasi bilan Rossiya Federal arxiv xizmati o'rtasida arxiv sohasi bo'yicha hamkorlik to'g'risida Bitim”** 2003-yil 21-mayda Toshkent shahrida imzolangan.

2. Arxiv sohasida tadqiqotlarni birgalikda davom ettirish muhimligini tasdiqlagan holda 2003-yil 6-iyunda imzolangan **“O'zbekiston Respublikasi “O'zarxiv” agentligi bilan Amerikaning Xolokost yodgorlik kengashi va uning Vashingtondagi Muzeyi o'rtasida hamkorlik to'g'risida Bitim** asosida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-oktabrdagi PF-5848-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2020-yilda tashqi beg'araz ko'mak mablag'larini jalb etish bo'yicha chora-tadbirlar Rejasining tegishli bandlari ijrosini ta'minlash yuzasidan 2020-yilning 29-iyul kuni **“O'zbekiston Respublikasi “O'zarxiv” agentligi va AQSh Xolokost memorial muzeyi o'rtasida hamkorlik shartnomasi”** imzolangan.

Ushbu Shartnoma asosida **“O'zbekiston Respublikasi “O'zarxiv” agentligi va Amerika Qo'shma Shtatlari Xolokost yodgorlik muzeyi o'rtasidagi hamkorlik to'g'risidagi Shartnoma asosida tuzilgan Texnik bitim”** 2021-yil 14-yanvarda Vashington va Toshkent shaharlarida imzolangan.

Mazkur hujjatlar asosida arxiv materiallarni raqamlashtirish va restavratsiya qilish bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

3. **“O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “O'zarxiv” agentligi bilan Qozog'iston Respublikasi Madaniyat va axborot vazirligi o'rtasida arxiv ishi sohasida hamkorlik qilish to'g'risida Bitim”** 2007-yil 26-iyulda Toshkent shahrida imzolangan.

4. **“O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “O'zarxiv” agentligi bilan Misr Milliy kutubxonasi va Arxivlari o'rtasida Anglashuv memorandumi”** 2009-yil 5-mayda Qohira shahrida imzolangan.

5. **“O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “O'zarxiv” agentligi bilan Ukraina Davlat arxivlar qo'mitasi o'rtasida arxiv ishi sohasida hamkorlik to'g'risida Bitim”** 2009-yil 29-oktabrda Yerevan shahrida imzolangan.



6. **“O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “O‘zarxiv” agentligi bilan Ukraina Davlat arxivlar qo‘mitasi o‘rtasida arxiv ishi sohasida hamkorlik to‘g‘risida Bitim”** 2009-yil 29-oktabrda Yerevan shahrida imzolangan.

7. **“Turkiya Jumhuriyati Bosh vazir devoni Turkiya Hamkorlik va muvofiqlashtirish agentligining O‘zbekistondagi vakolatxonasi rahbari bilan o‘tkazilgan uchrashuv Bayoni”** 2015-yil 24-fevralda Toshkent shahrida imzolangan.

**“O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “O‘zarxiv” agentligi bilan Turkiya Respublikasi Bosh vaziri devoni huzuridagi Davlat arxivlari bosh direksiyasi o‘rtasida arxivlar sohasida hamkorlik to‘g‘risida Protokol”** 2018-yil 30-aprelda Toshkent shahrida imzolangan.

**“O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “O‘zarxiv” agentligi bilan Turkiya Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat arxivlari boshqarmasi o‘rtasidagi madaniy-gumanitar hamkorlikni yanada rivojlantirish bo‘yicha kelishuvlarni amalga oshirilishini ta‘minlash bo‘yicha Amaliy harakatlar rejasi”** 2019-yil 11-martda Toshkent shahrida imzolangan.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-dekabrda PQ-4067-son Qaroriga muvofiq, O‘zbekiston milliy arxivining yangi binosini qurish uchun loyiha hujjatlarini ishlab chiqish bo‘yicha ishlar ketmoqda. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-aprelda “O‘zbekiston Respublikasi va Birlashgan Arab Amirliklari o‘rtasida ikki tomonlama hamkorlikni yanada mustahkamlash va kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4256-son Qarori bilan tasdiqlangan Yo‘l xaritasining tegishli bandiga asosan davlat arxivlarini zamonaviy uskunalar bilan ta‘minlash, 2019-yil 25-martda Abu-Dabi shahrida imzolangan **“O‘zbekiston Respublikasi “O‘zarxiv” agentligi va Birlashgan Arab Amirliklari Milliy arxivi o‘rtasidagi o‘zaro Anglashuv memorandumi”** doirasida loyihani amalga oshirish joyini aniqlash bo‘yicha masalalar hal etilmoqda.

9. **“O‘zbekiston Respublikasi “O‘zarxiv” agentligi bilan Vengriya Milliy arxivi o‘rtasida hamkorlik to‘g‘risida Bayonnoma”** 2019-yil 6-noyabrda Termiz shahrida imzolangan bo‘lib, o‘zaro manfaatdorlik asosida arxiv sohasida hamkorlikni rivojlantirish maqsad etilgan. Xususan, tomonlar o‘z davlatlarining amaldagi milliy qonunchiligiga muvofiq tadqiqotlar olib boradilar va arxiv hujjatlarining namunalarini, shuningdek, arxiv hujjatlarini boyitish maqsadida arxiv hujjatlari uchun nashr etiladigan qo‘llanmalar, inventarlar va shu kabi tadqiqot



vositalarini almashadilar. Bundan tashqari, elektron ma'lumot va zamonaviy texnologiyalar hamda ularning arxivlarida qayta tiklash ishlarini olib borish bo'yicha bilimlar ulashish maqsadida tomonlar arxiv sohasida mutaxassislar bilan almashadilar.

10. **“O‘zbekiston Respublikasi “O‘zarxiv” agentligi va Yahudiy xalqi tarixi markaziy arxivi (Quddus) o‘rtasida arxiv ishi sohasida hamkorlik to‘g‘risida Memorandum”** 2021-yil 12-avgust kuni onlayn ravishda videokonferens-aloqa formatida imzolangan.

11. **“O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti, O‘zbekiston Respublikasi “O‘zarxiv” agentligi va Polsha Respublikasidagi Gdansk shahrida joylashgan Ikkinchi jahon urushi muzeyi o‘rtasidagi uch tomonlama hamkorlik to‘g‘risidagi Bitim”** 2021-yil 25-noyabrda Toshkent shahrida imzolangan.

12. **“O‘zbekiston Respublikasi “O‘zarxiv” agentligi va Yad Vashem, Xolokost qurbonlari va qahramonlarini xotirlash boshqarmasi (Quddus) o‘rtasida arxiv ishi sohasida hamkorlik to‘g‘risida Memorandum”** 2022-yil 6-aprelda Quddus shahrida imzolangan.

13. 2022-yil 21-22-iyun kunlari Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti I.Alievni O‘zbekiston Respublikasiga rasmiy tashrifi doirasida 20-iyun kuni o‘tkazilgan “O‘zbek-Ozarbayjon biznes-forumi”da **“Ozarbayjon Respublikasi Milliy arxiv boshqarmasi va O‘zbekiston Respublikasi “O‘zarxiv” agentligi o‘rtasida arxiv ishi sohasida hamkorlik to‘g‘risidagi Bitim”** imzolangan.

14. **“O‘zbekiston Respublikasi “O‘zarxiv” agentligi va Polsha Respublikasi Milliy xotira instituti o‘rtasida arxiv ishi va ish yuritish sohasida Anglashuv memorandumi”** 2022-yil 4-oktabrda Toshkent shahrida imzolangan.

15. **“O‘zbekiston Respublikasi “O‘zarxiv” agentligi va Belarus Respublikasi Adliya vazirligi Arxivlar va ish yuritish departamenti o‘rtasida arxiv ishi va ish yuritish sohasida Anglashuv memorandumi”** 2022-yil 7-oktabrda Minsk shahrida imzolangan.

16. **“O‘zbekiston Respublikasi “O‘zarxiv” agentligi bilan Qirg‘iziston Respublikasi Raqamli rivojlanish vazirligi o‘rtasida o‘zaro hamkorlik to‘g‘risida Memorandum”** 2022-yil 3-noyabrda Bishkek shahrida imzolangan.

**2020-2022-yillar mobaynida O‘zbekistondagi quyidagi mahalliy tashkilotlar bilan hamkorlik hujjatlari imzolangan:**

- 2020-yil 2-martda Toshkent shahrida “O‘zbekiston Respublikasi “O‘zarxiv” agentligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi



Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi o'rtasida Anglashuv memorandumi”;

- 2020-yil 4-avgustda Toshkent shahrida “O‘zbekiston Respublikasi “O‘zarxiv” agentligi va “Master Media Production and Broadcast” MChJ (“Sevimli” TV) o‘rtasida o‘zaro hamkorlik Memorandumi”;

- 2020-yil 7-oktabrda Toshkent shahrida “O‘zbekiston Respublikasi “O‘zarxiv” agentligi va Fanlar akademiyasi Tarix instituti o‘rtasidagi hamkorlik to‘g‘risidagi Kelishuv”;

- 2020-yil 4-noyabrda Toshkent shahrida “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi va O‘zbekiston Respublikasi “O‘zarxiv” agentligi o‘rtasida anglashuv memorandumi”;

- 2021-yil 19-yanvarda Toshkent shahrida “O‘zbekiston Respublikasi “O‘zarxiv” agentligi va “O‘zbekiston-Isroil” do‘stlik jamiyati o‘rtasida manfaatli munosabatlarni o‘rnatish va idoralararo aloqalarni kengaytirish hamkorlik memorandumi”;

- 2021-yil 25-yanvarda Toshkent shahrida “O‘zbekiston Respublikasi “O‘zarxiv” agentligi va Fanlar akademiyasi huzuridagi O‘zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo‘yicha Muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz o‘rtasida hamkorlik to‘g‘risidagi kelishuv”;

- 2021-yil 18-martda Toshkent shahrida “O‘zbekiston Respublikasi “O‘zarxiv” agentligi va Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi o‘rtasida anglashuv memorandumi”;

- 2021-yil 18-mayda Toshkent shahrida “O‘zbekiston Respublikasi “O‘zarxiv” agentligi va O‘zbekistonda Shanxay hamkorlik tashkilotining Xalq diplomatiyasi markazi o‘rtasida hamkorlik to‘g‘risida memorandum”;

- 2021-yil 24-iyunda Toshkent shahrida “O‘zbekiston Respublikasi “O‘zarxiv” agentligi va Toshkent shahridagi Inxa universiteti o‘rtasidagi hamkorlik memorandumi”;

- 2022-yil 24-fevralda Toshkent shahrida “O‘zbekiston Respublikasi “O‘zarxiv” agentligi va “Axborot texnologiyalari va axborot resurslarini rivojlantirish markazi” davlat unitar korxonasi o‘rtasidagi hamkorlik memorandumi”;

- 2022-yil 11-mayda Urganch shahrida “O‘zbekiston Respublikasi “O‘zarxiv” agentligi va Urganch davlat universiteti o‘rtasida Anglashuv memorandumi” imzolangan;





- 2022-yil 6-avgustda Toshkent shahrida “O‘zbekiston Respublikasi “O‘zarxiv” agentligi, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti hamda O‘zbekiston Milliy media assotsiatsiyasi o‘rtasida hamkorlik to‘g‘risidagi memorandum” imzolangan.

**Mazkur hamkorlik kelishuvi va memorandumlaridan ko‘zlangan asosiy maqsadlar:**

- arxiv fondlarining ko‘rgazmalarini tashkil etish va o‘tkazish, arxiv hujjatlarining restavratsiyasi va muhofazasini ta‘minlash, shuningdek, ularni keng targ‘ib qilish;

- madaniy qiymatga ega bo‘lgan arxiv hujjatlarini keng targ‘ib qilish, o‘z faoliyati to‘g‘risida bir-biriga axborot taqdim etish, ajdodlar merosini saqlash va ilmiy-ma‘rifiy izlanishlar borasida o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;

- tomonlar ekspertlari va mutaxassislari bilan o‘zaro manfaatli maqsadlarda almashish, birgalikda tadbirlar tashkil qilish, arxiv ishi sohasiga ilm-fan yutuqlarini muntazam ravishda tatbiq etib borish, davlat arxivlari bilan ilmiy aloqalarni mustahkamlash va rivojlantirish maqsadida o‘zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish hamda qo‘shma arxiv tadqiqotlarini olib borishdan iborat.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi // Xalq so‘zi, 2016 yil 15 dekabr, № 247 (6682)
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi 4947-son farmonining 1-ilovasi «2017-2021 yillarda O‘zbekiston 52 Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi». [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
3. Gulyamov S.S. Zadachi sovershenstvovaniya sistemn korporativnogo upravleniya v Uzbekistane. //Korporativnoye upravleniye v Uzbekistane. Materialn nauchno-prakticheskoy konferensii. T.: 2004. s.143-145;
4. Raximova, Sh.N. Zaynutdinov. Korporativ boshqaruv asoslari. - T.: Akademiya, 2006.- 47b.; Berkinov B.B. Korporativnoye upravleniye: seli i zadachi /Narodnoye slovo 15.05. 2004 g.
5. Rasulov N. M. Korporativ boshqaruvning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish negizida korxonalar rivojlanish samaradorligini oshirish (O‘zbekiston Respublikasi sanoat korxonalari materiallari misolida).08.00.13-“Menejment va marketing” ixtisosligi. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. - T., 2010. - 161 b.



6. Saidov M.S. Tabiiy monopoliyalar sohalarida menejmentning zamonaviy usullarini joriy etish masalalari (“O‘zbekenergo” Davlat aksiyadorlik kompaniyasi misolida). Ixtisoslik: 08.00.13 - “Menejment va marketing”. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. - T., 2009. - 176 b 7. Xashimov A.A. Korporativ boshkaruv shaklidagi tuzilmalarni rivojlantirish istiqbollari. - T.: Fan, 2003. - 111 b.